

PEDAGOG KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕ- ТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГА

ISSUES OF DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF TEACHERS

QAMBAROV MUSOXON MUXTORJANOVICH, NAMDU.
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagog kasbiy kompetentligining mazmuni, tuzilishi va uni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari tahlil qilingan. Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining kasbiy mahoratini oshirish, innovatsion yondashuvlardan foydalanish va uzluksiz kasbiy rivojlanish masalalari yoritilgan. Pedagog kompetentligini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: pedagog, kompetentlik, kasbiy rivojlanish, ta'lim sifati, innovatsiya, malaka.

Аннотация. В данной статье рассматриваются содержание, структура и основные направления развития профессиональной компетентности педагога. Освещаются вопросы повышения профессионального мастерства учителя, использования инновационных подходов и непрерывного профессионального развития. Разработаны практические рекомендации по формированию педагогической компетентности.

Ключевые слова: педагог, компетентность, профессиональное развитие, качество образования, инновации.

Abstract This article analyzes the content, structure, and main directions of developing teachers' professional competence. It highlights the issues of improving professional skills, using innovative approaches, and continuous professional development. Practical recommendations for developing pedagogical competence are proposed.

Keywords: teacher, competence, professional development, education quality, innovation.

Kirish

Bugungi globalashuv sharoitida ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri — raqobatbardosh, mustaqil fikrlay oladigan va yuqori malakali kadrlarni tayyorlashdir. Bu esa, o'z navbatida, o'qituvchining kasbiy mahorati va salohiyatiga bevosita bog'liq. Zamonaviy o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki innovatsion g'oyalarni amaliyotga tatbiq etuvchi ijodkor shaxs bo'lishi lozim.

Zamonaviy ta'lim tizimida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligiga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. Ta'lim sifati va samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchining bilim darajasi, pedagogik mahorati va innovatsion faoliyatiga bog'liq. Shu sababli pedagog kasbiy kompetentligini rivojlantirish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va nazariy asoslar

Kompetentlik alohida jihatlariga ko'ra tadqiq qilinsa ham, umuman olganda, fundamental pedagogik muammo sifatida hali nafaqat yechimi topilmagan, balki, muammo sifatida ham yetarlicha shakllantirilmagan. Xususan, kompetentlik yondoshuvini tizimli tahlil etishga, uni umuman ta'lim tizimida ham, kasbiy ta'limda ham qo'llashning nazariy metodologik va didaktik asoslarini aniqlashga doir ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmagan.

Amerikalik psixolog olim Djo Pol Gilford o'zining ilmiy tadqiqot ishlarida kreativlik va intellektni birinchi marotaba taqqosladi. U intellekt strukturasi modelini yaratishda tafakkurni konvergent va divergent turiga ajratdi.

Konvergent tafakkur - (lotincha *convergere*— “bir yo'ldan”) tafakkur formasi bo'lib, muammoning bir qancha yechimlaridan faqat yagona to'g'risini tanlashdir. Konvergent tafakkur asosida intellekt yotadi, shuning uchun intellektual tafakkur deb ham ataladi.

Divergent tafakkur – (lotincha *divergere* – “bo'linish”) ijodiy tafakkur metodlaridan

biri bo'lib, berilgan bir muammoning bir qancha yechimlarini toppish, shuning bilan bir qatorda, divergent tafakkur “bir vaqtning o'zida turli yo'nalishlarga izlanish, ya'ni bir muammoga bir nechta to'g'ri javoblar borligini va original ijodiy g'oyalarning tug'ilishiga xizmat qiladi. Divergent tafakkurning asosida kreativlik yotadi.

O'zbekistonda pedagogning kasbiy kompetentligining o'rganilishi Bir qator tadqiqotlarda bevosita pedagogga xos kasbiy kompetentlik va uning o'ziga xos jihatlari o'rganilgan. Bunday tadqiqotlar sirasiga A.K. Markova va B.Nazarovalar tomonidan olib borilgan izlanishlarni kiritish mumkin. O'z tadqiqotlarida A.K.Markova pedagogning kasbiy kompetentligi quyidagi tarkibiy asoslardan iborat ekanligi aytiladi[8]

Pedagogik kompetentlik. Keyingi yillarda pedagogika sohasida “kompetentli”, “kompetentsiya”, “kompetentlilik” tushunchalaridan tez-tez foydalanilmoqda. Bu ta'lim mazmunini isloh qilish zarurati bilan uzviy bog'liq.

S.I. Ojegov bu tushunchalarni quyidagicha ifodalaydi:

Kompetentlilik – biror sohani chuqur bilish, ko'p narsalardan xabardorlik, o'z mutaxassisligi bo'yicha katta e'tiborga moliklik”.

Kompetentsiya – 1.Biror kishi juda yaxshi bilgan yoki xabardor bo'lgan masalalar doirasi. 2.Biror kishining vazifalari, huquqlari doirasi”.

Kompetentsiya – bior soha bo'yicha har tomonlama chuqur bilimga ega bo'lgan va shuning uchun ham fikri salmoqli, ishonchli hisoblangan kishining sifati”. [2]

Kompetentlik yondoshuvi ta'lim sifatini baholash uchun ham muhim hisoblanadi, chunki, ta'lim oluvchi tomonidan erishiladigan asosiy ta'limiy natija – kompetentlik hisoblanadi, uning asosiy ko'rsatkichlari esa, bir tomondan ta'lim standartlarining me'yoriy talablariga muvofiqligi, ikkinchi tomondan, shaxs va turli ijtimoiy guruhlarining

ehtiyojlariga mosligidir. Kompetentlikning birinchi tarkibiy qismi me'yoriy hujjatlarda belgilab qo'yilgan ta'lim natijalaridan iborat. Ikkinchi tarkibiy qismini ijtimoiy talablar va ehtiyojlar belgilaydi, bu qism jamiyatning rivojlanishiga mutanosib, o'zgaruvchan bo'lib, o'zgartirishlar va tuzatishlar kiritilib turiladi.

Kompetentlik tushunchasi ilmiy adabiyotlarda shaxsning bilim, ko'nikma va malakasi hamda ularni amaliy faoliyatda qo'llash qobiliyati sifatida ta'riflanadi. Pedagogik kompetentlik esa o'qituvchining ta'lim jarayonini samarali tashkil etish qobiliyatini ifodalaydi.

Pedagog kompetentligi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- kasbiy bilimlar;
- pedagogik mahorat;
- kommunikativ qobiliyat;
- axborot texnologiyalaridan foydalanish;
- innovatsion faoliyat. [10]

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda ilmiy adabiyotlar tahlili, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatuv, anketa va intervyu metodlaridan foydalanildi.

O'qituvchining kasbiy mahorati — bu uning pedagogik bilimlari, amaliy ko'nikmalari, kommunikativ qobiliyati va ta'lim jarayonini samarali tashkil etish qobiliyatining majmuasidir. Bu jarayon Pedagogika va Psixologiya fanlari bilan chambarchas bog'liq.

Pedagog kasbiy kompetentligini oshirishda uzluksiz ta'lim muhim ahamiyatga ega. SHu maqsadda:

- Malaka oshirish kurslari va seminarlar amaliyotga yo'naltirilgan shaklda tashkil etilishi lozim;
- Onlayn platformalar (MOOC) va elektron resurslar orqali mustaqil o'qish imkoniyatlari kengaytirilishi zarur;
- Xalqaro pedagogik tajribalar va ilg'or metodikalar tadqiqotlar asosida joriy etilishi tavsiya qilinadi.

2. Innovatsion yondashuvlarning ahamiyati

Innovatsion yondashuvlar ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ular o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, mustaqil fikrlash va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Innovatsion yondashuvlarga quyidagilar kiradi:

Interfaol ta'lim usullari (aqliiy hujum, debat, klaster), Loyiha asosida o'qitish

Muammoli ta'lim texnologiyasi, Raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish

Xususan, STEAM ta'lim yondashuvi o'quvchilarda fanlararo bilimlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalar va ta'lim axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o'qituvchining ish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Zamonaviy platformalar orqali masofaviy ta'limni tashkil etish, interaktiv darslar o'tkazish va bilimlarni baholash imkoniyati kengayadi. Masalan, Google Classroom — topshiriqlarni berish va nazorat qilish, Zoom — onlayn darslarni tashkil etish

Bu vositalar o'quv jarayonini qulay va samarali qiladi.

Kasbiy mahoratni oshirish doimiy o'z ustida ishlashni talab etadi. O'qituvchi:

- Yangi pedagogik texnologiyalarni o'rganishi
- Ilmiy-amaliy anjumanlarda ishtirok etishi
- O'z darslarini tahlil qilishi
- Fidbek asosida faoliyatini takomillashtirishi lozim [6]

Innovatsion kompetentlik — pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish ta'limdagi innovatsion jarayonlar mohiyatidan

xabardorlik, kasbiy faoliyat sohasi va tegishli ta'lim yo'nalishidagi innovatsiyalarni o'zlashtirish, amaliyotga faol tatbiq etish, zamonaviy pedagogik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi savodxonlik, chet tillarni o'zlashtirish, novatorlik faoliyatida ko'rinadi.

Ta'lim tizimida yoki o'quv faoliyatida innovatsiyalarni qo'llashda sarflangan mablag' va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish maqsadi ko'zlanadi.

Pedagogik innovatsiyalar tegishli sohada ijobiy o'zgarishlarni sodir etish, sifat jihatdan yuqori natijalarga erishish

O'qituvchining kasbiy mahoratini oshirishda innovatsion yondashuvlar muhim o'rin tutadi. Zamonaviy ta'lim talablariga javob berish uchun o'qituvchi doimiy ravishda o'z ustida ishlashi, yangi texnologiyalarni o'zlashtirishi va ularni amaliyotda qo'llashi zarur. Bu esa ta'lim sifati oshishiga va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Asosiy qism pedagog kasbiy kompetentligining mazmuni

Zamonaviy ta'lim tizimida pedagogning kasbiy kompetentligi muhim o'rin tutadi. Chunki ta'lim sifati, o'quvchilarning bilim darajasi va tarbiyasi bevosita o'qituvchining salohiyatiga bog'liq. Bugungi pedagog faqat bilim beruvchi emas, balki o'quvchilarni hayotga tayyorlovchi, ularning shaxsiy rivojlanishiga yo'nalish beruvchi mutaxassisdir. [5]

Kasbiy kompetentlik tushunchasi

Pedagog kasbiy kompetentligi — bu o'qituvchining bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlarining uyg'unligi bo'lib, u ta'lim jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi. Bu tushuncha Pedagogika va Psixologiya fanlari asosida shakllanadi.

Pedagog kasbiy kompetentligining asosiy tarkibiy qismlari

1. Kasbiy bilimlar – pedagog o'z fanini chuqur bilishi, zamonaviy ta'lim standartlari va metodlarini o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Bu bilimlar:

nazariy bilimlar, metodik bilimlar, pedagogik va psixologik bilimlar

Pedagog kasbiy kompetentligi – bu o'qituvchining ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilar bilan samarali muloqot qilish va zamonaviy metodlarni qo'llash qobiliyatidir.

Jahon pedagogikasida pedagogik kompetentlikni rivojlantirish muammosi etnik xususiyat hamda mentalitetni hisobga olgan holda tadqiq etilmoqda. Zamonaviy didaktika ta'limda gumanistik (insonparvarlik) falsafani shakllantirish, ijodiylik va o'z fikr-mulohazalarini himoya qilish usullarini takomillashtirish, unga ta'sir etuvchi omillarni ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan o'rganish bo'yicha keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Kompetentlikni rivojlantirish omillari:

- uzluksiz ta'lim;
- malaka oshirish;
- mustaqil ta'lim;
- amaliy tajriba;
- ilmiy faoliyat. [9]

Zamonaviy yondashuvlar kompetentlikka asoslangan ta'lim, interaktiv metodlar, raqamli texnologiyalar, masofaviy ta'lim.

Amaliy tavsiyalar

1. Malaka oshirish kurslarida ishtirok etish;

2. Zamonaviy texnologiyalarni o'rganish;

3. Ilmiy tadqiqotlar olib borish;

4. Dars tahlili;

5. Xalqaro tajribalarni o'rganish.

Natijalar va muhokama

Pedagog kompetentligini rivojlantirish ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va o'quvchilarning bilim darajasini oshiradi. O'quvchi va talabalarimiz joriy yilda xalqaro fan olimpiadalarida 51 ta oltin, 101 ta kumush, 126 ta bronza medalini qo'lga kiritib, o'z bilim va salohiyatini butun dunyoga namoyish qildi.

El-yurtimizning faxri bo'lgan bunday farzandlarimizga, ularning ota-onalari va ustoz-murabbiylariga yana bir bor chin dildan

tahsin aytamiz-”¹.

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari orasida bilimlar, har tomonlama bilimdonlik, intellekt va madaniyatning ajratib ko'rsatilishi tasodifiy emas.

Xulosa Pedagog kasbiy kompetentligini rivojlantirish ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri bo'lib, u uzluksiz va tizimli amalga oshirilishi lozim.

Pedagog kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari zamonaviy ta'lim tizimida alohida ahamiyatga ega. Tadqiqotlar va amaliy tahlillar shundan dalolat beradiki, pedagogning professional mahoratlari uning ta'lim jarayonidagi samaradorligi, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirishdagi ta'siri bilan bevosita bog'liq.

Kasbiy kompetentlik quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat:

1. Kasbiy bilim va nazariy bazasi – fan va metodika bo'yicha chuqur bilimlar;

2. Amaliy ko'nikmalar va pedagogik

texnologiyalarni qo'llash–darsni rejalashtirish va interfaol usullardan foydalanish;

3. Kommunikativ va ijodiy kompetentlik – o'quvchilar va hamkasblar bilan samarali muloqot, innovatsion yondashuvlarni joriy etish;

4. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini bilish – elektron va onlayn platformalardan samarali foydalanish;

5. Shaxsiy rivojlanish va refleksiya – o'z-o'zini baholash va doimiy samaradorlikni oshirishga intilish.

Shuningdek, pedagog kasbiy kompetentligini rivojlantirishda uzluksiz malaka oshirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash, raqamli vositalardan foydalanish va shaxsiy rivojlanish rejasini ishlab chiqish asosiy yo'nalish sifatida tavsiya etiladi.

Xulosa qilib aytganda, pedagog kasbiy kompetentligi — bu faqat bilim va ko'nikmalar emas, balki zamonaviy talablarga moslashish, yangiliklarni qabul qilish va dars jarayonida samarali amalga oshirish qobiliyatidir. Ushbu masalalarni samarali hal qilish orqali ta'lim sifati yaxshilanadi va o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishi ta'minlanadi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2025. – B.4.



Foydalanilgan adabiyotlar :



1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi Qonuni" 2020 y. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2020 yil 24 sentyabr "Xalq so'zi".
2. Ожегов. С. Словар русского языка. – Москва: Русский язык, 1999.
3. Мигранова Е.А., Позилова Ш.Х. Касбий педагогик фаолиятга кириш. – Тошкент: Тафаккур бўстони, 2011-й.
5. Tuning Educational Structures in Europe. – 2007.
6. Ишмухамедов Р. Инновацион педагогик технологиялар. Тошкент, 2019-й.
7. Кузьмина Н.В. Акмеологическая теория повышения качества подготовки специалистов образования. – М.: 2001.
8. Маркова А. Психология профессионализма. – М.: 1996.
9. Qambarov M.M. Pedagogika tarixi. Toshkent: Bayoz. 2023-y.
10. Qambarov M.M. Umumiy pedagogika va psixologiya darslik. Toshkent: Bayoz. 2025-y.